UDK: 811.161.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a73**

TARIXIY ETNOLISONIY JARAYONLAR VA O‘ZBEK XALQINING MILLIY TILI (NAMAGAN QIPCHOQ SHEVALARI MISOLIDA)

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЯЗЫК УЗБЕКСКОГО НАРОДА (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКИХ КЫПЧАКСКИХ ДИАЛЕКТОВ)

HISTORICAL ETHNOLINGUISTIC PROCESSES AND THE NATIONAL LANGUAGE OF UZBEK PEOPLE (ON THE EXAMPLE OF NAMANGAN KYPCHAK DIALECTS)

Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna[1]

[1]**Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna** – Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarixiy etnolisoniy jarayonlarda milliy til tarkibidagi uch asosiy lahja – qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining shakllanishi, turli hudud shevalari, hozirgi adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida, ayniqsa, qipchoq lahjasiga mansub shevalarning alohida o‘rni haqidagi ma’lumot va qarashlarni ma’lum ma’noda yoritib berish maqsad qilib olingan. Jahon tilshunosligi e`tirof etganiday, har qanday milliy tilining birinchi pog‘onasi lahja va shevalar hisoblanadi. Natijada ularni har tomonlama chuqur o‘rganish asosida hududning dilektal lisoniy tabiati ochiladi. Bu esa millat adabiy tilining rivojlanishiga, uning sath birliklari o‘ziga xos tarzda mukammallashishiga xizmat qiladi. Sheva va lahjalar faqat lingvistik materialgina emas, ayni paytda millatning tarixi, madaniyati, milliy belgi, xarakter-xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim bir manbadir. Shuni alohida ta`kidlash joizki, bugungi globallashuv sharoiti va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tilga o‘z ta`sirini o‘tkazmoqda. Shuning uchun ham shevalarni o‘z vaqtida ilmiy asoslar orqali o‘rganish va ular to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelish har doimgidanda dolzarblik kasb etadi.

Аннотация

В данной статье представлена информация о формировании в исторических этнолингвистических процессах трех основных диалектов национального языка - карлукского, кыпчакского и огузского диалектов, различных региональных диалектов, особой роли диалектов в формировании и развитии современного литературного языка, особенно кыпчакского диалекта.По признанию мирового языкознания, диалекты являются первой ступенью любого национального языка. В результате на основе комплексного их изучения раскрывается диалектно-языковая природа региона. Это способствует развитию литературного языка нации, уникальному совершенствованию его уровневых единиц. Диалекты являются не только языковым материалом, но и важным источником, объединяющим историю, культуру, национальные символы и особенности нации. Следует отметить, что современная глобализация и изменения в общественной жизни оказывают влияние на язык. Именно поэтому всегда важно своевременно изучать диалекты на научной основе и делать о них определенные выводы.

Abstract

This article provides information on the formation in historical ethnolinguistic processes of the three main dialects of the national language - Karluk, Kypchak and Oguz dialects, various regional dialects, the special role of dialects in the formation and development of the modern literary language, especially the Kypchak dialect. According to world linguistics, dialects are the first stage of any national language. As a result, based on their comprehensive study, the dialect-linguistic nature of the region is revealed. This contributes to the development of the literary language of the nation, the unique improvement of its level units. Dialects are not only language material, but also an important source that unites history, culture, national symbols and characteristics of the nation. It should be noted that modern globalization and changes in public life have an impact on the language. That is why it is always important to study dialects on a scientific basis in a timely manner and draw certain conclusions about them.

Kalit so‘zlar*: etnomadaniy, etnolingvistik, sheva, lahja, milliy til, adabiy til, til sathlari, sath birliklari, hudud lisoniy dialectal tabiati, jahon tilshunosligi, o‘zbek tilshunosligi, maishiy leksika.*

Ключевые слова: *этнокультурный, этнолингвистический, диалект, национальный язык, литературный язык, языковые уровни, уровневые единицы, языковая диалектная природа региона, мировая лингвистика, узбекское языкознание, бытовая лексика.*

Key words: *ethnocultural, ethnolinguistic, dialect, national language, literary language, language levels, level units, language dialect nature of the region, world linguistics, Uzbek linguistics, everyday vocabulary.*

KIRISH

Namangan viloyati hududidagi tub aholi sheva belgilariga ko‘ra hozirgi o‘zbeklarning qadimgi ikki yirik etnik guruhi – qarluq va qipchoq lahjasiga mansub. Bundan tashqari, bu dealektal

arealda tojik, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar kabi millatlarga mansub aholi vakillari ham istiqomat qiladi.

Tarixdan ayonki, o‘zbek, tojik, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq va turkman kabi xalqlarning ajdodlari Markaziy Osiyo hududida asrlar davomida yonma-yon, aralash yashab kelgan. Har qanday etnik va etnomadaniy aloqalar, avvalo, tilda o‘z aksini topadi. Muayyan etnos tilida yuz berayotgan o‘zgarishlar etnolingvistik jarayonlar sifatida talqin qilinadi. Zero, etnolingvistik jarayonlar tillararo munosabatlar, aloqalar va turli mustaqil tillarning bir-biriga o‘zaro ta`sir etishi kabi jihatlarini ham qamrab oladi. Namangan shevalarining etnogenezisidagi ana shu jarayon turli qardosh va noqardosh til vakillarining bir-birlari bilan qadimdan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lganliklarining amaliy natijasidir.

Namangan viloyati hududida yashovchi aholi tarixini qadimgi Mug‘tepa (Kosonsoy), Munchoqtepa (Pop tumani), Axsikent (To‘raqo‘rg‘on tumani) madaniyati tarixidan ajratib qarash aslo mumkin emas.

Bilamizki, Namangan Farg‘ona vodiysidagi eng katta maydonga ega viloyat hisoblanadi. Farg‘ona vodiysi esa qadim-qadimdan madaniyat markazlaridan, barcha sohalarda sivilizatsiya o‘choqlaridan bo‘lganligi tarixiy manba va ilmiy asoslangan fikrlardan ma’lum[1].

Namangan viloyati shevalari esa o‘ziga xos belgilari bilan O‘zbekiston Respublikasida alohidalikka ega.

Namangan viloyati shimol va shimoli-sharqiy tomondan Qirg‘iziston Respublikasi, janubdan Andijon viloyati va janubi-sharqdan Qirg‘iziston Respublikasi bilan, G‘arb va shimoli-g‘arbiy tomondan Toshkent viloyati, Janubi-g‘arbdan esa Farg‘ona viloyati bilan chegaradoshdir. Mazkur oraliqdagi hududni Namangan viloyati dialektal areali deb belgiladik.

O‘zbek xalqi va o‘zbek milliy tilining shakllanishida ko‘pgina etnik guruhlarning ishtirok etgani ma`lum. O‘zbek millati o‘z etnik tarkibining serqirra va murakkabliligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Bu hol o‘zbek tilining ko‘p shevali til bo‘lishiga ham asos bo‘lgan[2].

Hududda qadimdan turkiy urug‘lardan qoraqalpoq, urganji, elatan, o‘lmas, katta o‘lmas, qiyot, qurama, saroy, qatag‘on, olchin, qorayontoq, madyor (monjor), momoxon, nayman, qozoq, beshserka (Mingbuloq t.), beshsari (Pop t.), kenagas, to‘da, qirchin, uyg‘ur, kerayit kabilarning istiqomat qilgani qishloq nomlaridan, ya`ni etnotoponimlardan ham yaqqol ko‘rinib turadi.

Muayyan bir hududda kechayotgan etnoslararo til munosabatlarining rivojlanish darajasi va ko‘lami ko‘p jihatdan mazkur hudud aholisining etnik tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, turli etnik jamoalar orasidagi o‘zaro etnik munosabatlar etnoslarning aralash yoki yonma-yon yashaydigan hududlarida qizg‘in kechadi[3]. Namangan dialektal areali ham qadimdan aynan shunday etnomuloqot hududi hisoblanadi.

Qadimdan Namangan viloyati hududi aholisining asosiy qismini o‘zbeklar, tojiklar va qirg‘izlar tashkil qilgan. Bundan tashqari, ushbu dialektal arealda tarixning turli bosqichlarida ko‘chib kelib, o‘rnashib qolgan ko‘plab turli etnos vakillarining[3,20] avlodlari ham istiqomat qiladilar.

O‘zbek tarixchi olimlarimizning, xususan, professor Ulug‘bek Abdullaevning Farg‘ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar haqidagi fikrlariga asosan Namangan dialektal areali uch etnik qatlamning o‘zaro birgalikdagi hayot tarzi, kundalik muloqot va aloqa-aralashuvi mahsuli – hosilasi sifatida quyidagi murakkab etnojarayonlar, aniqrog‘i, etnolingvistik jarayonlar orqali[4] shakllangan:

1) etnik komponentlari uzoq etnogenetik assimilyatsiya (qorishuv) natijasida shakllangan eron tilli xalqlar bilan turkiy etnosli shahar va qishloq aholisi. Ular qadimdan o‘troq yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan. Urug‘ qabilalarga bo‘linmagan. Rus tilidagi adabiyotlarda aholining bu qatlamiga nisbatan “sort” atamasi qo‘llangan. “Sort” atamasi Markaziy Osiyo mintaqasining bir qator hududlarida, xususan, Farg‘ona vodiysida, Toshkent, Xorazm vohasida yashagan o‘troq aholiga nisbatan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlar tomonidan berilgan nomdir [5]. Hozirda ham mahalliy til vakillari bir-birini sort va qorolpoq (qoraqalpoq) yoki sort va qipchoq tarzida farqlaydi;

2) ilmiy adabiyotlarda “ilk qabilalar” deb ataluvchi aholi vakillari. Ular Dashti Qipchoq o‘zbeklari kirib kelguniga qadar ham Markaziy Osiyoning markaziy va turli hududlarida, jumladan, Farg‘ona vodiysida yashab kelgan turk va turk-mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari vakillari hisoblanadi. Ushbu etnik qatlamga mansub qarluq, yag‘mo, chigil, ashpar, chog‘rak, qovchin, jaloyir, barlos,

nayman, xitoy, baxrin, tog‘ay, arg‘in, baliqchi qabilalar Farg‘ona vodiysida nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilgan [6]. XIX-XX asr boshlarida mazkur qabilalar umumiy bir nom, ya`ni “turk” etnonimi bilan atalgan;

3) keyingi davrlarda Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgan Dashti Qipchoq qabilalari vakillari qipchoq va qoraqalpoq urug‘lari, chunonchi, qirq, kenagas, chiyal (chayali), qatog‘on, saroy, qurama, mang‘it, qozoq, urganji, elatan, o‘lmas, katta o‘lmas, qiyot, olchin, qorayontoq, madyor (monjor), momoxon, nayman, qozoq, beshserka, beshsari, kenagas, to‘da, qirchin, uyg‘ur, kerayit va boshqalar o‘zbek xalqi, qolaversa, o‘zbek xalqining ajralmas qismi bo‘lgan Namangan viloyati hududi aholisining shakllanishidagi uchinchi yirik etnik qatlam hisoblanadi.

Darhaqiqat, tilshunos olim Xudoyberdi Donyorov haqqoniy ta`kidlaganidek: “o‘zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini qipchoq – o‘zbeklar tashkil etadi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy xronologik nuqtai nazardan o‘zbek millatining tarkibiga eng keyin qo‘shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a`zolarining yagona va umumiy nomi bo‘lib qolgan “o‘zbek” nomini ham shu komponent olib kelgan” [7, 115].

Garchi, vodiy, xususan, Namangan vioyati qipchoq lahjali aholi vakillari Xorazm vohasida yashovchi qipchoq lahjali aholi kabi murakkab urug‘-qabilaviy tuzilishga ega bo‘lmasalar-da, har holda tadqiqotchilar vodiy hududidagi qoraqalpoqlar ham bir necha urug‘lardan iborat ekanliklarini qayd etganlar. Xususan, Farg‘ona qoraqalpoqlarini maxsus o‘rgangan L.S.Tolstova vodiyda mang‘it, kenagas, qipchoq, qo‘ng‘irot kabi qoraqalpoq urug‘lari yashaganliklari, ular o‘z o‘rnida bir qancha mayda qavmlarga bo‘linganliklarini ta`kidlaydi [8,27-35]. Masalan, olim ta`kidlagan, shuyit, xitoy-qipchoq, momoxon, bessari, uyruchi, nayman, kenagas, qo‘g‘ay, qorayontoq urug‘larining vakillari hozirda ham Namangan viloyati hududlarida istiqomat qilib kelmoqda.

Til har bir etnosni boshqa bir etnosdan ajratib turuvchi muhim va asosiy belgidir. Etnos nazariyasiga ko‘ra ham til etnosni belgilab turuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Ayni vaqtda til kishilarning asosiy aloqa vositasi sifatida ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni belgilovchi, ularni yuzaga chiqaruvchi hamda ana shu munosabatlar orqali rivojlanuvchi ijtimoiy tabiatga ega hodisadir.

Ma’lumki, etnos shakllanishi jarayonida har bir etnosga xos til taraqqiy etib boradi. Muayyan bir etnos boshqa etnos bilan munosabatga kirishar ekan, avvalo, ushbu munosabatlar natijasi ularning tilida o‘z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biz o‘rganayotgan Namangan viloyati hududida ham qadimdan yashab kelgan turli etnoslarga mansub xalqlar haqidagi ma`lumotlardan [9] dialektal arealning har bir guruh shoxobchalarida ana shu etnik guruhlarning til unsurlari, etnografik belgilari ko‘zga tashlanadi.

Shuni takrorlashga to‘g‘ri keladiki, mazkur xalqlar bir guruh sho‘ro tarixchilari ta`kidlaganlaridek faqat eron tillarida so‘zlashuvchi xalqlardangina iborat bo‘lmay, ularning katta bir guruhi turkiy tilning turli lahjalarida gaplashganlar. Aniqroq qilib aytganda, bu hududlarda antik va ilk o‘rta asrlarda turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar ham yashagan bo‘lib, ular mintaqada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy, jumladan, etnolingvistik jarayonlarda faol ishtirok etganlar [10,264].

O‘rganilayotgan dialektal hudud – Namangan viloyati sheva arealida ham etnoslararo til munosabatlari qadim davrlardanoq boshlangan va bu jarayon asosi quyidagi ikki yo‘nalishda rivojlanib borgan: birinchi yo‘nalishda tillararo qorishuv (metizatsiya holati) turkiy tilning turli lahjalarida so‘zlashuvchi urug‘ va qabilalar ichida yuz bergan bo‘lsa, ikkinchisida esa turkiy tilli xalqlar bilan turkiy bo‘lmagan etnoslarning tillari o‘rtasida chatishuv (gibridizatsiyalashuv holati) sodir bo‘lgan.

Tarixdan ayonki, miloddan oldingi III asrda Sirdaryoning o‘rta oqimida Qang‘ (Qanxa) davlati tashkil topgan edi. Bu davlat tarixda Kanguy nomi bilan ham ma`lum. Tadqiqotchilar [11] ushbu davlat aholisining etnik jihatdan bir xil bo‘lmaganligi, davlat hududida eron tilli xalqlar, xususan, so‘g‘diylar, assianlar, (aslar) bilan birga turkiy tilda so‘zlashuvchi etnoslar ham yashaganliklarini aytib o‘tadilar. Yangi era arafasida ushbu davlat aholisi ikki tilda (eron va turkiy tillarda) so‘zlashganlar. Keyinroq ushbu hududga ko‘plab turkiy tilli etnoslarning ko‘chib kelishi natijasida bu yerda turkiy etnik qatlamning mavqeyi ortib borgan, oqibatda aholining turkiylashishi kuchaygan.

Turkiy va turkiy bo‘lmagan etnoslar orasidagi til aloqalari ilk o‘rta asrlarda ham kengayib bordi. Bu davrda mintaqaning bir qator hududlarida aholi turkiy va so‘g‘d tillarida so‘zlashgan. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy XI asrda Sharqiy Turkistonning janubidagi shaharlarda, shuningdek, Chu va Talas vodiysidagi aholi turk va so‘g‘d tillarida gaplashganliklari, aholi ikki tilli bo‘lganligi haqida xabar beradi. Uning so‘zlariga ko‘ra X-XI asrlarda Sharqiy Turkistondagi Bolasog‘un shahrida bir vaqtning o‘zida aholi ham turkcha, ham so‘g‘dcha so‘zlashganlar. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Turkiy tillar devoni” asarida Bolasog‘undagi so‘g‘diylar haqida gapirib, “Buxoro va Samarqanddan ko‘chib borgan so‘g‘doqlar Bolasog‘unda joylashib qolgan va turkiylashib ketgan” deb yozgan edi [12]**.**

NATIJA VA MUXOKAMA

Turli millatlarning birikuvidan tarkib topgan Namangan viloyati aholisi uchun azaldan ikki tillilik xos bo‘lgan. XIX-XX asr boshlarida vodiy hududida o‘zbek-tojik, o‘zbek-uyg‘ur, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-qoraqalpoq ikki tillilik holatlari kuzatiladi. Natijada, yuqoridagi ikki tillilik hodisasi va ularning tarqalish ko‘lami hududda turlicha bo‘lib, bu ijtimoiy hodisaning sodir bo‘lishi etnik muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Adabiy til tarixan shakllangan, so‘z ustalari tomonidan qayta ishlangan, ijtimoiy-me`yoriy tartiblangan, jamiyatdagi kishilar faoliyatining hamma sohalari bilan bog‘langan badiiy-publitsistik, rasmiy, ilmiy adabiy tildir. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til barcha o‘zbeklar uchun tushunarli va namuna bo‘ladigan, umumxalq tilining eng yaxshi ifoda-imkoniyatlari mujassamlangan tildir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘zlashuvchi va uni tushuna oladigan turkiy xalqlar O‘zbekiston Respublikasida, Qoraqalpog‘iston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston Respublikasida, Afg‘onistonda, Uyg‘uriston (Xitoy)da, Turkiya va boshqa mamlakatlarda yashaydi.

O‘zbek adabiy tili – hozirgi milliy til, umumxalq tilining eng oliy ko‘rinishidir. Adabiy til umumxalq tilining yozma shakli, uning tarixi bizning zamonamizgacha yetib kelgan eng qadimgi yozma yodgorliklar tilidan boshlangan.

Jonli til – sheva, lahjalar ma`lum hududdagi aholining so‘zlashuv tilidir. Bu til yozuv bilan ta`minlanmaganligi, ma`lum me`yorga tushirilmaganligi, qoidalashtirilmaganligi, qo‘llanish doirasining cheklanganligi bilan adabiy tilimizdan farq qiladi.

Shunday qilib, umumxalq tilining ***ikki*** tarmog‘i mavjud bo‘lib, ular adabiy til va jonli til (sheva) ko‘rinishidan iboratdir. O‘zbek tilining ko‘pgina nazariy va amaliy masalalarini hal qilish bevosita sheva va lahjajalarni o‘rganish bilan bog‘liq hisoblanadi.

Jonli til – shevalar – tarixiy yodgorlikdir. Shu bois, shevalarda saqlanib qolgan ayrim so‘z va shakllar o‘zbek tili tarixi uchun ishonchli, muhim manba hisoblanadi. O‘zbek shevalari adabiy tilimiz tarkibiga kirib, uning lug‘at boyligi va grammatik qurilishida birliklar hosil qiladi.

Adabiy til va shevalar bir-biri bilan to‘xtovsiz munosabatda bo‘ladi. Adabiy til lahja va shevalarga ta`sir etib, ularning xususiyatlarini yaqinlashtirib boradi, o‘rni kelganda, jonli tildan oziqlanib, shevalardagi so‘z va iboralar hisobiga boyib ham boradi.

XULOSA

Ma’lumki, ayrim narsa va hodisalarning nomlari adabiy til va lug‘atlarda uchramaydi, lekin lahja va shevalarda mavjud bo‘ladi. Bunday vaqtda ularni hech ikkilanmay, adabiy tilga kiritishimiz kerak. Masalan: *o‘mgan* – ko‘krak, odam va hayvonlar ko‘ksi. Eski o‘zbek tilida *omgen* – *ot ko‘kragi; o‘r* – balandlik, tepalik. Xorazmnyning “Muhabbatnoma” asarida o‘r so‘zi balandlik ma`nosida ishlatilgan:

Buyurdi o‘rga shodiravon uruldi,
Kadah kelturdilar majlis quruldi.

Ücha – orqa. Bu so‘z eski o‘zbek tilida orqa va biqin go‘shti ma’nosida ishlatilgan: *Odil podsho ko‘zgu va bu aning uchasidur* (Odil podsho ko‘zguning (oynakning) beti bo‘lsa, zolim podshoh uning orqasi – *Navoiy*); *günchasi* – satang ayol; *chörpa* – 1) cho‘chqa bolasi; 2) mayda bolalar ma’nosida ishlatiladi (Bu so‘zni A.Navoiy ham o‘z asarlarida qo‘llagan) [13,12]. *Shilon* – turli masalliqlardan tayyorlangan ommaviy ovqat; *tekis* – chiroyli (ayollarga nisbatan qo‘llanadi); *asqatish* – foydasi tegish; *arpabadiyan* – ukrop turi (rus.: anis); *sirg‘alï:* – (Farg. tip shevalarda: quloqning pastki qismidagi isirg‘a osadigan joyi (rus.: mochka), Toshkent tip shevalarda *solinchoq; uzängilï:k* yoki *bebilchak* – oyoqning yuz qismi; *xomutoyo*q yoki *chatanoq* – oyog‘ini kerib yuradigan odam; *o‘tïk* yoki *o‘tkaläk* – (Namangan qipchoq shevalarida: “y”lovchilarda *o‘tik*,

“j”lovchilarda *o‘tkaläk*) suvli joy yoki ariqlardan o‘tadigan yog‘ochdan qilingan yolg‘izoyoq ko‘prik – joy; *kechïk* – suvning sayoz yeridan kechib o‘tadigan joy. XI asr yodgorliklarida bu so‘z ko‘prik ma`nosida ham qo‘llangan [12,144] ; *cho‘kkala* – laganbardor; *qalang‘ï-qasang‘ï yoki qalang‘ï* – ko‘pchilik oldida o‘zini tuta olmaydigan, yengiltabiat, ziyofatlarda tezda mast bo‘lib qoladigan kishi. (Toshkent shevasida: *qalang‘i-qasang‘i,* Namangan qipchoq shevalari “j”lovchilarda: *qalang‘ï,* boshqa qipchoq shevalarda: *qang‘il); cho‘tal* – olinadigan narsa, ulush; *tötra//tölta//dölta* - yog‘ quyqasi; *bertmoq* – qipchoqlarda *mertmoq* – shikastlanmoq, *qïlchi* – sartarosh. Bu so‘z Turdi she`rlarida ham uchraydi [13, 12]; *chekanak*//*chekeney//chig‘anoq* – tirsak; *parash* yoki *xosa* – yupqa mato, doka, dokaparang va boshqa shu kabilar.

Xullas, shevalarga, jonli so‘zlashuvga xos so‘z va atamalar adabiy tilimiz lug‘atini boyitishda katta ahamiyatga ega, ularni qo‘rqmay adabiy tilimizda qo‘llashga, ularni me`yorlashtirishga tomon amaliy ishlarni boshlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Қаранг. Кошғарий М. Девону луғат-ит турк. I том. – Тошкент, 1960-1963; Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001; Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – № 4. – Тошкент, 1962
2. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2012.–Б.3; Марқаев К.Ш.Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008.–Б. 13.
3. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б.47.
4. Қаранг. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Тошкент: Фан, 1974. – С. 109-114-116; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX асрнинг бошлари). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 10-11.
5. Қаранг. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015; Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: Шарқ, 2001.
6. Қаранг. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Тошкент: Фан, 1974. – С. 109-114-116; Некоторые вопросы этнической динамики и этнических связей узбеков в XIV – XVII вв. // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Т. 1986. – С. 83-93. Винников В.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине // СЭС. 1959. – Т. II. – С. 404-405; Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 71-74.
7. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.8-9; Абдиев М. Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 115.
8. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959. – С. 27-35.
9. Қаранг. Аскаров А.А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОН Узб., 1997. – №3. – С.66; Шониёзов К. Канғ давлати ва канғлилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.5; Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 92; Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз ясашнинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967. – Б. 19; Спришевский В.И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963. – С.21.
10. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (X1X-XX аср бошлари). тарих фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 264-285.
11. Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007; Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015; Шониёзов К. Канғ давлати ва канғлилар. – Тошкент: Фан, 1990; Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент, Шарқ. 2001; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (X1X-XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
12. Қошғарий М. Девону луғат-ит турк. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов). – Тошкент, 1960-1963. – Б. 486.
13. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 12.